O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

QASHQADARYO VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

“ YANGI O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSION USULLARNI JORIY ETISHNING PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK ASOSLARI: XALQARO TAJRIBALAR VA AMALIYOT ”

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

Qarshi shahri, 2025-yil 30-oktyabr

Ushbu Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plamida Yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim tizimi boshqaruvidagi innovatsion usullar, ularni amaliyotga joriy etishning pedagogik-psixologik asoslari va unda xalqaro tajribalarning tutgan o‘rni haqida nazariy hamda amaliy ma’lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, ta’lim tizimi boshqaruvida inson omillari va ta’lim menejmentining ahamiyati, pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlanishini samarali boshqarishda xalqaro tajribalarni amaliyotga joriy etish, umumta’lim maktablarida innovatsion usullarni qo‘llashning pedagogik-psixologik jihatlari, zamonaviy boshqaruv asosida umumta’lim maktablari ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘llari kabi dolzarb masalalarga doir ilmiy maqola va tezislar o‘rin olgan.

Mas’ul muharrir:
N.Sh.Oripova - Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi direktori
Bosh muharrir o‘rinbosari:
D.S.Shaniyazova - Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi Pedagogika, psixologiya va ta’lim menejmenti kafedrasi v/b. dotsenti
Tahrir hay’ati a’zolari:

L.Umarov	**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)**
D.Shaniyazova	**v/b. dotsent**
N.Baratova	**katta o‘qituvchi**
D.Bekmuradova	**katta o‘qituvchi**
L.Meyliyeva	**katta o‘qituvchi**
O.Ochilov	**v/b. dotsent**
H.Yaratov	**v/b. dotsent**
A.Nazarov	**o‘qituvchi**

Taqrizchilar:

O. Norov	***Qashqadaryo VPMM, filologiya fanlari bo‘yicha falsaf doktori (PhD), dotsent***
B.E.Yuldoshev	***Qashqadaryo VPMM, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)***

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi Ilmiy-metodik kengashining 2025-yil 29-noyabr 6-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.
To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldir. ©QashqadaryoVPMM, 2025.

o‘rab olgan quyuq o‘rmonzorda kamondan o‘q uzish mashqlarini bajarar edi. Bunday mashg‘ulotlarga bir necha marotaba guvoh bo‘lgan izdoshi esa o‘zini mashqlarga befarqdek tutardi. [2-127]

Ustoz eman daraxti ostida o‘sgan yovvoyi atirgul g‘unchasini uzib, daraxtning baland shoxiga ildi-da, undan yuz qadam uzoqlashdi. Uning harakatlaridan taajjubga tushgan shogird jarayonni diqqat bilan kuzata boshladi. Ustoz sadog‘idan o‘q olib, noyob yog‘ochdan tayyorlangan yoyiga ildi. Shogirdiga ro‘molcha uzatib, «ko‘zimni bog‘la» dedi, keyin:

– Mardlik timsoli bo‘lgan kamonbozlik bilan shug‘ullanganimni ko‘p ko‘rgansan, to‘g‘rimi? – dedi.

– Har kuni va yana atirgul g‘unchasini 300 qadam uzoqlikdan turib urishingizni ham, – dedi shogird.

Ustoz qaddini rostladi, oyoqlarini qulay joylashtirib, o‘ng yelkasi bilan orqaroq tisarildi, kamonni tarang tortib, o‘qni nishonga to‘g‘riladi. Vaziyatdan karaxt bo‘lgan shogird vizillab uchgan o‘qning ovozidan sergak tortdi. O‘q gul tugul daraxtga ham tegmaganini ko‘rgach, miyig‘ida kuldi.

– Xo‘sh, o‘qni tekkiza oldimmi? – so‘radi ustoz bog‘langan ko‘zlaridan ro‘molchani yechar ekan.

– Yo‘q! Taassufki, o‘q tamomila boshqa yoqqa qarab uchdi. Men inson idrokining qudrati bilan bog‘liq mo‘jizaviy hodisaga guvoh bo‘lamanmi, deb o‘ylab turgan edim. Afsus!.. – dedi shogird.

– Hozirgina senga inson idrokiga daxldor muhim saboqni berdim, – deya xotirjamlik bilan javob berdi ustoz. – Ko‘zim ochiqligida g‘unchani 300 qadamdan ura olaman. Garchi, bugun unga 2 barobar yaqin tursam-da, nishonga ololmadim. Unutma, maqsadingga ko‘zing yetsagina erishasan. Aks holda, unga qanchalar yaqinliging ahamiyatsiz. Bu dunyoda o‘zi ko‘ra olmagan nishonga o‘qni urish hech kimga nasib qilmagan.

Ushbu matn orqali o‘quvchi har bir qahramonga tanqidiy fikr bildirishi, voqealar rivojini o‘zi tasavvur etganchalik o‘zgartirishi mumkin. Bunda o‘qituvchidan yo‘naltiruvchi savollar berib borish talab etiladi. Masalan, “Shogirdning xatti-harakatini qanday baholaysiz?” yoki “Ustoz to‘gri ish qildimi?” kabi savollar o‘quvchini o‘ylashga, har bir voqelikka tanqidiy yondashishga undaydi.

Yoki 10-sinf Tarbiya darsligida “Mahallada duv-duv gap” filmi haqida savollar keltirilgan. ““Mahallada duv-duv gap” filmidagi Mehri ayaning o‘g‘li xato qildimi? Fikringizni asoslang” savoli o‘quvchi uchun tanqidiy tafakkur borasida yaxshigina mashq bo‘lishi mumkin.

3. Jamolova, L.A., Cho‘liyev, I.N., & Jovliyev, B.X. (2024). Me’yoridan ko‘p ovqatlanishning organizm antropometrik ko‘rsatkichlariga ta’siri.–220-betlar.

4. Jovliyev, B.X., & Quldoshev, J.L. Sportchilarning chiniqishini baholashda funksional sinamalardan foydalanish. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami 2-qism 33-36-bet, 2022-yil 30- iyun.

5. Rajobov O‘.M., Jovliyev, B.X. Imkoniyati cheklangan bolalarga mahalliy tendensiyalar asosida umumiy ta’lim berish xususiyatlari. QarshiDU BT xalqaro konferensiya, 2024-yil 26–27-aprel, 214–220-betlar.

6."Cognitive Development" - Uta Frith.

7. "The Cambridge Handbook of Intelligence" - Robert J. Sternberg.

8. "Memory in Children" - Peter A. Ornstein, Michael J. Baker-Ward, Valerie A. Brainerd.

9. "Thinking, Fast and Slow" - Daniel Kahneman.

10. "The Developing Mind: How Relationships and the Brain Interact to Shape Who We Are" - Daniel J. Siegel.

Maktabgacha yoshidagi bolalarda intellekt va kreativlikni rivojlantirish bosqichlari

Osiyo texnologiyalar universiteti
Gulobat Ibragimova Pedagogika kafedrasi katta o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda aql va ijodkorlikni rivojlantirish bosqichlari ko'rib chiqiladi. U erta bolalik davrida kognitiv o'sish va ijodiy ifodaning o'zaro bog'liqligini o'rganadi, mavjud adabiyot va tadqiqotlardan tushunchalarni oladi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha yoshdagi bolalar, bolalarda intellekt **,**aql, ijodkorlik, kognitiv rivojlanish, erta bolalik

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Maktabgacha ta`lim - ertangi kunimizga zamin”dir. Bilim va faoliyat uslubining murakkablashishi ta’lim jarayonida bolalar rivojlanishining asosiy va belgilovchi tomonini tashkil etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bolaning

rivojlanishidagi muhim davr bo'lib, tez kognitiv o'sish va rivojlanayotgan ijodkorlik bilan ajralib turadi. Ushbu bosqichda aql va ijodkorlik bosqichlarini tushunish erta bolalik ta'limini optimallashtirish va yaxlit rivojlanishni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tarbiyasining asosiy vazifalari-jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat tarbiyasi, estetik tarbiya berib borishdan iboratdir. Psixologlar fikricha bu yoshda bolada bilish jarayonlari rivojlanib borganligi sababli unga o`rgatilgan har bir yangilikni tez ilg`ab oladi, ongiga singdirib boradi.Bolalikda aqliy rivojlanish asosini bolada shakllanayotgan idrok etish va fikrlash harakatlarining yangi turlari tashkil etadi. Bu yoshda avtodidaktik, o‘zi o‘rgatuvchi o‘yinchoqlar (matryoshkalar, qutichalar, kubchalar, mozaika va boshqalar) bola ongini tez rivojlantiradi.Intellektualpsixologik o`yinlar bolani har tomonlama komil shaxs bo`lib shakllanishidagi asosiy vositalardan biridir. Maktabgacha ta`lim davridagi bolani har tomonlama komil inson bo`lib shakllanishida didaktik o`yinlar asosiy vosita bo`lib xizmat qiladi. Intellektualpsixologik o`yinlarning barchasini quyidagi uch turga ajratish mumkin:

1. Buyumli o`yinlar(o`yinchoqlar, tabiiy materiallar)
2. Stol ustida o`ynaladigan o`yinlar
3. So`z o`yinlari Ta`lim jarayonida zamonaviy interfaol usullardan foydalanish bolalar intellektiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish bu fikriy faoliyatning ko‘rgazmali-harakatli, ko‘rgazmali-obrazlidan abstrakt, nazariyga o‘zgarishidir. Bolada tushunchalar va tushunchalar tizimi muntazam shakllanib boradi. Bolaning anglash va fikrlash rivojlanishi darajasi qancha yuqori bo‘lsa, u o‘zlashtirgan, foydalanayotgan tushunchalar shuncha murakkab bo‘ladi. Shu tarzda, umumiy holda bola psixik rivojlanishi jarayonini uch asosiy yo‘nalishga bo‘lish mumkin:

1) ta’lim jarayonida bilim va faoliyat usullarining rivojlanishi,

2) o‘zlashtirilgan usullar qo‘llash psixologik mexanizmlarining rivojlanishi, 3) shaxsning umumiy xususiyatlari rivojlanishi. Ushbu mavzu yuzasidan davra suhbatlari o`tkazildi. Maktabgacha ta`lim tashkilotlari psixologlari bilan tajribalar almashildi. Bolada intellekt ona qornidan rivojlanishni boshlaydi. Bolalarda asosiy intellektual rivojlanish bosqichi maktabgacha va maktab yoshiga tòg`ri keladi. Genetika va irsiyat intellektual salohiyatga o`z ta`sirini ko`rsatadi.Maktabgacha yoshdagi bolalarda intellekt bilan birgalikda kreativlik ham rivojlanib boradi. Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalar taqqoslangan tadqiqotlar katta ahamiyatga egadir. Intellektual xossalar bilan taqqoslash bo‟yicha tadqiqotlar Dj. Gilford tomonidan amalga oshirilgan. Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati

bo‟lib, uning o’z-o’zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog’liq. Kreativlik (lot., ing. “create ” – yaratish, “creative ” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g„oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg„ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo„ladi. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e‟tibor qaratish zarur: 1) ular tomonidan ko„p savollar berilishini rag„batlantirish va bu odatni qo„llab-quvvatlash; 2) bolalarning mustaqilligini rag„batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish; 3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish; 4)bolalarning qiziqishlariga e‟tibor qaratish. Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to„sqinlik qiladi:

1) o„zini tavakkaldan olib qochish;

2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo„pollikka yo’l qo’yish;

3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;

4) boshqalarga tobe bo’lish;

5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o’ylash.

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda aql va ijodkorlik bosqichlari haqida qimmatli tushunchalarni beradi, erta bolalik ta'limi uchun yaxlit yondashuvlarning ahamiyatini ta'kidlaydi .Bolalarda intellekt va kreativlik,ijodiy o'sish uchun qulay muhitni yaratadi.

Adabiyotlar.

1. Maktabgacha yoshidagi bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish muammolari Dilnoza Abdulazizovna Mirzayeva

2. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishda o’qituvchining roli Gulnora Abduraxmonovna Yusufaliyeva Guliston davlat universiteti o’qituvchis.

3. Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari” moduli bo‟yicha o‟quv-uslubiy qo‟llanma. :– Toshkent 2015,240 bet